



XONLIKLAR DAVRIDA MEMOCHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISHI. (XVI-XIX- ASRLAR)

Dushamova Gulsanam Sherali qizi

Navoiy davlat universiteti .San'at vasport

fakulteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Bobonazarov Sherali Ulug'murodovich

katta o'qituvchisi. Tel. 998 91 331 89 60

Annotatsiya:

Memorchilik san'ati o'zining boy madaniyati bilan birga, uzoq tarixga borib taqaladi. Ushbu san'at turi orqali insonlarning kundalik hayotini, turmush tarzini, urf odatlarini ham qisman bo'lsada bilib olish mumkin.

XVI- asrdan boshlab ko'plab hududlarda Temuriylar davri me'morlik san'ati an'analariga tayangan holda turli ko'rinishdagi binolar qad ko'tara boshladi, masjidi, madrasalar barpo etildi. Shaharlarida savdo-sotiq, hunarmandchilik ham bir muncha rivojlanadi.

Kalit so'zlar: Hattotlik, miniatyura, sardoba, Masjid, madrasalar, peshtoq, majmua, guzar, hunarmand.

Аннотация:

Искусство мемуаров, наряду с богатой культурой, имеет долгую историю. Благодаря этому виду искусства можно узнать, по крайней мере частично, о повседневной жизни, образе жизни и обычаях людей.

Начиная с XVI- века, во многих регионах были построены различные здания, мечети и медресе, основанные на архитектурных традициях эпохи Тимуридов. В городах также в некоторой степени развивались торговля и ремесла.

Ключевые слова: каллиграфия, миниатюра, sardaba, мечеть, медресе, крыша, комплекс, Гузар, ремесленник.



Markaziy Osiyodagi yirik davlatlardan hisoblangan Shayboniylar davlati deyarli 100 yil davomida (1500-1598) tarixda o'zining salmoqli "izini" qoldirdi. Abdullaxon hukmronlik qilgan davrlarda (XVI- asming ikkinchi yarmi) Buxoro poytaxtga aylantirildi. Buxoroning muhim madaniy va siyosiy markaziga aylanishi xonlikning mavqeyi va martabasini yanada oshirib yuboradi. Buxoroda turli yunalishda ish olib borishgan usta hunarmandlar yuqori yutuqlarga erishdilar. Bu davrga kelib dunyoviy fanlar- musiqa, she'riyat, hattotlik va miniatyura rassomligi ham ravnaq topadi.

Usta memorlar temuriylar davri me'morligi uslubini davom ettirib, memorlikning yangicha yo'llarini topishga harakat qildilar, izlanishlar olib bordilar. Mudofaa devorlari yanada mustahkamlanib, shaharning asosiy ko'chalarida mahobatli binolari barpo etildi. Shu bilan birga ta'mirlash ishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Bunday keng kulamli qurilish ishlariga, Movarounnahr, Hirot, Balx ustalari ham ishtirok etdilar. Shunday madrasalardan Qaffoli Shoshiy (1541-42) majmusi, Miri Arab madrasasi hisoblanib, u 1530-1536 yillarda Shayx Abdulloh (Miri Arab) tamonidan qurdirilgan.

Buxoroda me'morlik san'atiningning ikkinchi bosqichi XVI asrning 60-90-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda nafaqat shaharda, shahar tashqarisida ham keng ko'lamli qurilish ishlari olib borildi, yirik majmualar bunyod etildi, mavjudlari esa qaytadan ta'mirlandi. Abdullaxon II davrida Poi Kalon Jome maschiti, Chor Bakr me'moriy majmuasi (1559), Modarixon (1566-1567) va Abdullaxon(1588—90), Ko'kaldosh (1557—98) madrasalari, Labi hovuz me'moriy majmuasi vujudga keldi. Abdullaxon II mablag'iga bu yerda ko'plab xonaqoh, masjid va madrasalar barpo etilgan. Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasi Abdullaxon II ning sarkardasi Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan barpo ettirilgan

Shu davrda kata- katta suv bilan bog'liq inshootlari, to'g'onlar, usti berk sardobalar barpo etilgan bo'lib, Abdullaxon "bandi" uzoq yillar qishloq xo'jaligi ishlarini rivojlanishida va ko'plab chorbog'lar barpo etilishiga xizmat qilgan.



Abdullaxon tomonidan barpo etilgan tim ham davr me'morligidagi jarayonlarni - maishiy hayot bilan bog'liq qurilmalarning barpo etilganligidan darak beradi.

Bu davr memoriy yodgorliklaridan yana biri sardobalardir, ular usti berk suv hovuzlari bo'lib, ularning ustiga katta gumbazlar o'rnatilgan. Bunday inshootlar asosan ipak yo'lida ya'ni karvonlar o'tadigan manzillarda bunyod etilgan bo'lib, bunday joylarda karvonsaroylar ham bunyod etilishiga sabab bo'lgan.

XVI- asming 80-yillarida barpo etilgan Abdullaxon madrasasi o'z davrining yangicha yo'nalishidagi qo'sh madrasa inshooti sifatida barpo etildi. Bu bino bir-biriga qaratilib qurilgan me'moriy majmua namunasi hisoblanadi. Madrasa Modarixon madrasasiga qarama-qarshi, peshtoqlari bir-biriga qaratib qad roslagan. Binolar birgalikda kompozitsion jihatdan yagona yirik me'moriy majmuani tashkil qiladi. Bunyod etilgan inshootlardagi bezaklar, xususan, o'simliksimon va geometrik naqshlar islomiy estetika va mahalliy san'at an'alarining uyg'unlashuvini o'zida aks ettirgan.

XVI-XVII- asrlardagi me'moriy faoliyat va bezak san'atining shakllanishi, ularning badiiy xususiyatlari hamda Buxoroning jahon madaniy merosiga qo'shgan hissasini faxr bilan esga olamiz. XX- asrning boshlariga kelib, Buxoroda buyod etilgan madrasalar soni 300 dan ortiq bo'lgan.

Xorazmda ham Temuriylar davri me'morlik san'ati an'alariga tayangan binolar qad ko'tara boshladi. Masjidu, madrasalar barpo etildi. Shu davrda Gurlan, Toshovuz, Xazorasp kabi shaharlarida savdo-sotiq, hunarmandchilik bir muncha rivojlanadi.

Qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan Muhammad Rahim (1806—1825) va uning o'g'li Olloqulixon xonlik qilgan yillarda (1825—1848) katta qurilish ishlar amalga oshiriladi, bojxona va zarbxonalar tashkil etildi. Xivaning bizgach etib kelgan mashhur yodgorliklarini o'zining tugallangan holda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mahobatli naqshinkor darvozalar, hashamdor karvonsaroylar va madrasalar hisobiga shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shildi. Tosh Hovli (1838), Pahlavon Mahmud



maqbarasi (1810) kabi yodgorliklar bugungi kunda bezakdorligi bilan xorazmliklar va xorijiy mehmonlar etiboriga sazovar bo'lgan. Muhammad Rahimxon o'g'li Olloqulixon davrida Xiva xonligining geografik hududi yanada kengayadi. Mamlakatda tinchlik hukm surishi hisobiga Xiva me'morligida yangi an'analar, yangi uslubdagi binolar qurilishi jadallashdi.

Quqon Xonlardan Olimxon (1800—1810), Umarxon (1810—1822) Muhammad Ali Ma'dagi (1822—1842) hukmronligi yillarida xonlik chegaralari yanada mustahkamlandi. Toshkent, Chimkent, Sayram yerlari hisobiga xonlik hududiy chegaralari kengaydi. Shu davrda qator qal'a va qo'rg'onlar qad rostladi. Avliyoota (Jambul), Mahram qal'asi, Peshpek (Bishkek), Oq masjid (hozirgi Qizil O'rda), kabi qator harbiy istehkomlar bunyod qilindi. Xonlik poytaxti bo'lgan Qo'qon shahrida katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, masjid-madrasalar qad rostladi. Shahar markazida juma masjid, bozor va guzarlar, karvonsaroylar qurildi.

Namanganda shahar bozorining yaqinida ajoyib me'moriy yodgorlik — XojaAmin qabri nomi bilan mashhur Xo'ja Amin maqbarasi qad roslagan. Maqbaraning qurilishi XVIII asrning ikkinchi yarmida, Namangan Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan biriga aylangan vaqtiga to'g'ri keladi. Yodgorlikni kuzatgan kishining, milliy hunarmandlarning o'lmas san'atiga bo'lgan hurmati oshadi, maqbarada ildizi qadim zamonlarga taqaluvchi yuqori badiiy an'analarini, o'z guzalligini hanuz yuqotmagan.

Farg'onaning Marg'ilon shahrida bunyod etilgan Zulqamayn maqbarasi minorali bo'lib, ularning tepa qismi boshqa minoralardan ajralib turadi. Shu bilan birga avliyolarga atab qurilgan bir qator manzilgohlar hozirgi kungacha o'zining jozibadorligini yuqotmagan. Ular unchalik katta bo'lmagan peshtoq-qubbali binolar bo'lib, ularning eshiklari, ustunlar o'ymakorlik san'ati bilan pardoqlangan.

XVIII asr o'rtalaridan Xo'qand qishlog'i Qo'qon xonligi poytaxti deb e'lon qilindi, buxorolik ko'plab usta hunarmandlar yangi poytaxtga taklif qilindi. Taklifga ko'ra bu yerga ko'plab ustalar ko'chib kela boshladi. Natijada qurilgan bino va



inshoatlar qurilishida, bezagida Buxoroning ta'siri sezilarli o'rin egalladi. Norbo'tabiy madrasasi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan Xudoyorxon saroyi hashamdorligi bilan boshqalridan ajralib turadi. Saroy xonalarini bezatish uchun o'z davrining mashhur ustalari jalb qilingan. Bu davrga kelib Qo'qon xonligida hunarmandchilik yaxshi rivojlandi, sopol buyumlar, ajoyib koshinlar, o'ymakor ishlari shu davr ruhini o'zida aks ettiraoldi.

Farg'ona shahriga asos solinishi bilan bu yerda shaharsozlik asosida to'g'ri va ravon ko'chali ma'muriy jamoat binolari qad rosladi. Qurilgan binolar uchun shu davrda mavjud bo'lgan uslublar va ulaming elementlari qo'llanildi. Namangan, Andijon, Qo'qon shahlari qaytadan ta'mirlanib, yangi rejalar asosida binolar barpo etildi.

XVI-IX-asrlarda Toshkentda ham yirik me'moriy majmualar bunyod etildi jumladan Hazrati Imom (Xastimon) majmuasi yirik me'moriy va islomiy majmua hisoblanadi. Uning tarkibiga Qaffol Shoshiy maqbarasi, Baroqxon madrasasi, Mo'yi Muborak madrasasi Tillashayx masjidi va zamonaviy Hazrati Imom jome masjidlari kiradi. Hozirgi kunda ushbu maskan Toshkentning tarixiy va ma'naviy markazi hisoblanadi. Ko'kaldosh madrasasi Baroqxonning o'g'li Toshkent hokimi Darvishxon tomonidan bunyod etilgan bo'lib uning dargohida eng oliy lavozimlaridan biri bo'lmish "ko'kaldosh" degan mansabni egallagan, siymo sharafiga shunday deb nomlashgan bo'lishi mumkin. Kiyingi yillarda ushbu majmualar atroflarida hovuzlar qurilib keng kulamli kukalamlashtirish ishlari olib borildi.

XV-XVI- asrlarda Karmana (Navoiy viloyati)me'morchiligi, xususan Shayboniylar davrida, o'ziga xos rivojlanish davrini bosib o'tdi. Bu davrning asosiy me'moriy yodgorligi sifatida XVI- asrga oid Qosim Shayx memoriy majmuasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Majmua Shayboniylar davrida (xususan, Abdullaxon II hukmronligi davrida) yuksak darajada qurilgan bo'lib u diniy va



memorial arxitektura namunasi hisoblanadi. U xonaqoh va daxmadan iborat bo‘lib, hozirda jome masjid sifatida faoliyat yuritadi. XVI- asr Karmana me‘morchiligi uchun pishiq g‘ishtdan foydalanish, gumbazli binolar, sodda ammo mustahkam qilib qurilganligi bilan ajralib turadi.

X-XI- asrlarga oid Mir Said Bahrom maqbarasi Karmananing eng qadimiy durdonasi hisoblansada, Qosim Shayx faoliyati bilan bog‘liq binolar hududning ma‘naviy va me‘moriy hayotida yetakchi o‘rinni egallagan.

Xulosa qilib aytganda, XV-XVI- asrlar Karmana me‘morchiligida ham Shayboniylar davri arxitektura an‘analarini o‘zida aks ettirganligini guvohi bo‘lamiz.

O‘lkamizda yaratilgan me‘morchilik durdonalari o‘ziga xoslig va betakrorligi bilan jahon xalqlari mehmoorchiligi orasida munosib o‘rin egalladi. Jumladan Minorai Kalon, Somoniylar maqbarasi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Quqon, Farg‘ona, Karmana va boshka qator shahar me‘moriy ansambllari o‘zining badiiy ifodasi, serjiloligi bilan yurtimiz ahlini va yurimizga tashrif buyurayotgan mehmonlarni hayratga solib kelmoqda.



Qosim Shayx memoriy majmuasining old ko‘rinishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Abdullayev. San‘at tarixi. O‘quv qo‘llanma.”San‘at”Toshkent 2001



2.A. Abdiqodirov. “O‘zbekiston tasviriy san’ati:Tarix va rivojlanish”.
Toshkent. 2010 .San’at.

3.N.Abdullayev. O‘zbekiston san’at tarixi. O‘quv
qo‘llanma.”San’at”Toshkent 2007

4.N.Abdullayev. San’at tarixi. O‘quv qo‘llanma.”San’at” Toshkent 2006

5.O.N.Samadov. Tasviriy san’at tarixi. o‘quv qo‘llanma. «Fan va texnologiya»,
TOSHKENT-2015

6. G. M. Abduraxmonov. “Tasviriy san’at kompozitsiyasi” Toshkent. 1996.

7.L. Egamov. “Kompozitsiya asoslari” «San’at» jurnali Toshkent. 2005.

8. Bobonazarov.Sh. kompozitsiya mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik
texnolo-giyalardan foydalanishning muhim ekanligi. *Science and
innovation, 1(B6), 11-(2022).*

<http://www.edu.uz> –

<http://sites.ziyonet.uz/> -

[https:// meros. uz.](https://meros.uz)